

“OLTIN QOBOQ” DOSTONIDAGI BADIY – TASVIRIY VOSITALAR.

Ochilov Nasim Kamalovich

Shahrisabz davlat universiteti, filologiya fanlari doktori, professor.

Saidova Muhayyo Muysunjonovna

Shahrisabz davlat pedagogika institute "O'zbek tili va adabiyoti" fakulteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sherobod dostonchilik maktabi epik an'alarida keng tarqalgan "Oltin Qoboq" dostonining g'oyaviy asoslari, umumo'zbek dostonchiligida tutgan o'rni, va dostonidagi badiiy – tasviriy vositalar hamda ularning dostonida tutgan o'rni tahlil qilingan. Doston variantlaridagi har bir badiiy – tasviriy ifodalar, jumladan, mubolag'a, metafora, sinekdoxa, o'xshatish kabi vositalar qiyosan o'rganilgan.

Kalit so'z: doston, baxshi, variant, mubolag'a, metafora, sinekdoxa, o'xshatish, badiiy mahorat, dostonchilik maktabi,

Аннотация: В данной статье анализируются идеологические основы эпической поэмы «Олтин Кобок», широко распространенной в эпических традициях школы эпической поэзии Шерабада, её место в узбекской эпической поэзии, а также художественно-изобразительные средства в эпосе и их место в нём. Проводится сравнительное исследование каждого художественно-изобразительного выражения в вариантах эпоса, таких как гипербола, метафора, синекдоха, сравнение.

Ключевые слова: эпос, бахши, вариант, гипербола, метафора, синекдоха, сравнение, художественное мастерство, школа эпической поэзии,

Annotation: This article analyzes the ideological foundations of the epic poem "Oltin Qoboq", which is widespread in the epic traditions of the Sherabad school of epic poetry, its place in the Uzbek epic poetry, and the artistic and pictorial means in the epic and their place in the epic. Each artistic and pictorial expression in the variants of the epic, such as hyperbole, metaphor, synecdoche, simile, is comparatively studied.

Keywords: epic, bakhshi, variant, hyperbole, metaphor, synecdoche, simile, artistic skill, epic poetry school.

O'zbek xalq og'zaki ijodi nihoyatda boy va serqirra ma'naviy meros sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa, uning tarkibidagi dostonlar xalqning tarixiy xotirasi, badiiy tafakkuri va estetik qarashlarini ifodalovchi muhim janr hisoblanadi.

Xususan, "Go'ro'g'li" turkumiga mansub dostonlar o'zining murakkab kompozitsion tuzilishi va o'zaro bog'langan epik tizimi bilan ajralib turadi.

Har bir doston mustaqil badiiy asar bo'lishi bilan birga, Go'ro'g'li obrazi atrofida birlashgan yaxlit epik majmuani ham tashkil etadi.

Turkum tarkibidagi "Oltin qoboq" dostoni badiiy jihatdan mukammal asarlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Doston yaxlit kompozitsion tuzilishga ega bo'lib, unda asosiy voqealar rivojiga xizmat qilmaydigan ortiqcha epizodlar deyarli uchramaydi. Aksincha, har bir voqea va tasvir syujetning badiiy mukammalligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur doston xalq og'zaki ijodining she'riy an'analari va uslubiy xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan asar hisoblanadi. Uni baxshilar ijro etadilar.

“Oltin qoboq” dostonining Gulboy baxshi Mirzayev hamda Abdunazar Poyonov tomonidan ijro etilgan variantlari mavjud. Har ikki baxshi ham asarni yuksak mahorat bilan ijro etgan.

Ayniqsa, Abdunazar Poyonov ijrosida hazil-mutoyiba, zamon bilan hamnafaslik va xalqona ruh yaqqol seziladi. Dostonda voqealar asosan nasriy yo'lda bayon qilinib, qahramonlarning ruhiy kechinmalari hamda tasviriy jihatlari she'riy parchalar orqali ifodalanadi. Shu bois asar tili sodda, ravon va ta'sirchanligi bilan ajralib turadi.

“Oltin qoboq” dostoni poetikasi xalq og'zaki ijodining cho'qqisi bo'lib, u qahramonlik, erkinlik va adolat g'oyalarini tarannum etuvchi o'ziga xos uslubga ega. Bunda epik tasvirning kengligi, baxshichilik ijro an'ansi bilan bog'liq barmoq vazni (asosan, 7-8 va 11 bo'g'in), nasriy – nazmiy aralash bayon va o'ta bo'rttirilgan, fantastik obrazlar xosdir. “Go'ro'g'li” turkumi dostonlarining asosiy poetik xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Epik turkumlashtirish: Dostonlar yagona qahramon, ya'ni Go'ro'g'li atrofida birlashgan, ammo har biri mustaqil syujetga ega.

Obrazlar tizimi: Go'ro'g'li — ideal qahramon, xalq himoyachisi. Uning sheriklari va raqiblari o'rtasidagi keskin to'qnashuvlar dostonning asosini tashkil etadi. Obrazlar ko'pincha bo'rttirish usulida tasvirlanadi.

Nasr va nazm aralashmasi: Dostonlarda voqealar nasriy bayon qilinib, his – tuyg'u, jang manzaralari va diologlar kuylanadi.

Badiiy tasvir vositalari: O'xshatish, sifatlash, mubolag'a va o'gitlar keng qo'llanadi, bu esa tasvirning ta'sirchanligini oshiradi.

Hududiy xususiyatlar: Xorazm va Buxoro – Samarqand, Surxandaryo baxshichilik maktablari ijro usuliga ko'ra va kuylash ohanglariga ko'ra farqlanadi.

“Go'ro'g'li” turkumidagi dostonlar o'zbek folklorida qahramonlik eposining eng yuksak namunalari hisoblanadi.

“Go'ro'g'li” turkumi tarkibiga kiruvchi “Oltin qoboq” dostonida ham yuqoridagi xususiyatlarni ko'rishimiz mumkin.

Dostonning nazm qismi barmoq vaznining 7-8 va 11 bo'g'inli shaklida yozilgan.

Masalan, quyida 11 bo'g'inli she'riy parchadan keltirilgan misolni ko'rishimiz mumkin.

Ot haydadim to'qqiz tog'ni jo'g'alab, (11b)

Bedov mindim oltinlardan to'g'alab. (11b)

Jiyanlarim kelmadi – da tog'alab, (11b)

Ketar bo'lsam, bu dunyodan naylayin. (11b)

(A. Poyonov variantidan).

Yoki

Olti yoshda turkman elga bosh bo'ldim,(11b)

Qancha – qancha dushman bilan g'ash bo'ldim.(11b)

Olatog'da Asqar tirga duch bo'ldim,(11b)

Uning boshin kesib yana yosh bo'ldim.(11b)

(Gulboy baxshi Mirzayev variantidan).

Jang lavhalari, tezlashgan tasvirlar 7 – 8 bo'g'inli she'riy misralar oraqali beriladi.

Masalan,

Sadolar aytib qo'shiqdi,(8b)

Qo'lga olib oshiqdi.(8b)

E, manga ochiq eshik deb,(8b)

Turkman barcha shoshibdi.(8b)

(Gulboy baxshi Mirzayev variantidan).

Yaxshining ko'ngli ochiqdi,(8b)

Yomonning ko'ngli puchuqdi.(8b)

Ehtiyot bo'ling bozorda,(8b)

O'g'ri olar qopchiqdi.(7b)

(A. Poyonov variantidan).

Dostonda qator badiiy – tasviriy vositalar qo'llanilgan bo'lib,dostonlar uchun eng ko'p qo'llaniladigani bu mubolag'a san'atidir.

Mubolag'a — bu shaxs, narsa yoki jarayonni bo'rttirib ko'rsatishdir.

Masalan, Gulboy baxshi Mirzayev aytgan variantda qoboqni otib tushurish musobaqasi boshlanishi oldidan ko'rilayotgan tayyorgarlikda mubolag'a san'tiga duch kelamiz.

Yana ming norga ortib

Choyxo'rlarning choyini ...

Qirq ming norga ortayotir

Choynak bilan payola.

Qirq ming norga ortayotir

Shaqillatib qoshiqni ...

Qirq ming norga joylaydi – yey,

Masalliq bilan piyozni.

Dostonda badiiy – tasviriy vositalar ,jumladan metaforaga ham duch kelamiz.

1. Yurtimni kimga topshiray,

Maslahat ber ikki gavhar pari.

2. Ikki qilmay parilarning so'zini,

Asli shular bilar hayot ko'zini...

3. So'ylaganda aytsam shirin til bo'lar,

Suv kelmagan joylar changib cho'l bo'lar.

(Gulboy baxshi Mirzayev variantidan)

Metafora usulidan o‘z ijrosida baxshi Abdunazar Poyonov ham unumli foydalangan. Masalan:

1. Besh kun dunyo bul ham ekan g‘animat,
Boshimdan ketadi – ya yolg‘onchi davlat.
2. Men ham tog‘asi bo‘lsam, Chambilning yarim egasi bo‘lsam, Go‘ro‘g‘lining mendan yaqin merosxo‘ri bo‘lmasa, tog‘a, joyimga o‘tiring demaydi –ya.
3. Tog‘asi qurg‘ur bir achchiq gapni aytgan
4. Kim shu nishonani otsa, podsholikka o‘tar,
Chambilning taxtini tebratar.

Dostonning badiiyatini yuksaltirib turgan san‘atlardan yana biri metonimiyadir. Metonimiya — ma’nolarning aloqadorlik (makon,zamon,sabab – oqibat) munosabatiga asoslanib, bir so‘zning boshqasi o‘rniga ko‘chib ishlatilish.

Bu usul badiiy tasvirni kuchaytirib, nutqni ixchamlashtiradi va hayotiy manzaralarni realistik ifodalaydi.

Metonimiya san‘atidan badiiy adabiyotda obrazlilikni oshirish maqsadida foydalaniladi.

“Oltin qoboq” dostoni bilan tanishar ekanmiz, har ikkala variantda ham metonimiya san‘atining yuksak namunalari qo‘llangan o‘rinlarga duch kelamiz. Masalan,Gulboy baxshi Mirzayev aytgan variantda quyidagilarni uchratamiz:

- 1) Go‘ro‘g‘li zo‘rligi keng jahonga bildirib, Oqtosh bilan Ko‘ktoshdan charqiratib jildirib...
- 2) Go‘ro‘g‘lining ko‘ngliga bir gap kelib, Makkayi Mukarramaga borsam, deb parilarning oldiga keldi.
- 3) Qariganda Hajga bormoq niyatim,
Quloq soling, manga sevar yorlarim.
- 4) Arpalida yuradi, Chambilning qancha qo‘ylari.
- 5) Lovullaydi bu yuragim olovdan,
So‘zlarini bilib aytgan donodan.

Baxshi Abdunazar Poyonov tomonidan aytilgan variantida ham metonimiya keng qo‘llanilgan. Masalan:

1. Quloq soling, parilar. Mana men ham qarib, 100ga yaqinlashib qoldim.
2. Topshirayin elni kimga, parilar,
Chambilginam qolmasinda egasiz.
3. Bir tomon Polapon, bir tomon Bolqon,
Ko‘zimga ko‘rinmas yer bilan osmon.
Senga taqdir qilsin Chambilday makon,
Iqbol qushi boshingga qo‘nsin, Avazjon.
4. O‘n beshda oylar to‘ladi,
Men bilan o‘ynab – kuladi.

Dostonning badiiyligiga, o‘quvchining qalbiga yo‘l topishiga yordamlashib turgan badiiy san‘atlardan yana biri bu sinekdoxadir.

Sinekdoxa — butun orqali bo‘lak yoki aksincha bo‘lak orqali butunni anglash orqali ma‘no ko‘chishidir. Bunda miqdoriy bog‘liqlik yetakchi bo‘lib, tushunchalar o‘zaro qism – butun munosabatida bo‘ladi.

Sinekdoxa badiiy adabiyotda ta’sirchanlik va emotsionallikni oshirish uchun qo‘llaniladi.

“Oltin qoboq” dostonida ham sinekdoxa usulida ma‘no ko‘chgan holatlar anchagina. Masalan:

1. Kim eshitar bugun sulton so‘zini,
Halollab yedim – a, elning tuzini.
Farzand bosar ekan odam izini,
Ko‘rmadim – a o‘g‘il tugul qizini
Bir tuyuqqa meni zor aylading, falak.
2. Borib keldim mamlakatning barini,
Dorga tortdim gala dovning zo‘rini.
Olib keldim Yunus, Misqol parini
Topmadim – da bir dardimga dorini,
Bir tirnoqqa meni zor aylading, falak.
3. E, Go‘ro‘g‘li, aylanmasin aziz boshing,
Yuzga yaqinlashibdi yoshing.
O‘ylab ko‘r: mendan boshqa ham bor ikki kishing,
Ikkigina qalam qoshing.
(Abdunazar Poyonov varianti)
4. Ena bo‘lib emizmadik go‘dakni,
Asli ko‘tarmadik biror yo‘rgakni.
(Gulboy baxshi Mirzayev varianti)

O‘xshatish ham dostonlarda keng qo‘llanadigan badiiy – tasviriy vosita turi hisoblanadi. Dostonda o‘xshatish san‘atiga keng o‘rin berilgan. Masalan:

1. E, to‘ram, Sizni ko‘rib qolmadi bizda orom,
Otingizday o‘layin harom.
2. Shodmonbek otning beliga minib, turkmanlarga qarab – qarab, ko‘zi o‘tday bo‘lib,
manglayi cho‘tday bo‘lib, turkmanlarning boylariga qarab, og‘zini ochib – ochib, og‘zi
qopayotgan itday bo‘lib borayotir.
3. Mulla aytgan azonday ...
Qirq quloqli qozonday.
(Abdunazar baxshi Poyonov)
4. Tubandagi ko‘zlari,
Ajdahoning ko‘ziday.
Tog‘dan o‘ynab taylaydi
Tulkini quvgan toziday.
5. Badanining yupqaligi
Xitoyning qog‘oziday.

Bundan tashqari dostonda talmeh san'atiga ham duch kelamiz. Talmeh bu— arabchadan tarjima qilinganda “ chaqmoq chaqilishi”, “bir nazar tashlash” ma'nosini bildiradi.

Mumtoz she'riyatda tarixiy shaxslar, afsonaviy qahramonlar, diniy rivoyatlar yoki mashhur voqealarga ishora qiluvchi badiiy san'at turi.

U she'rda ma'lum bir voqeani qisqa so'zlar bilan eslatib, g'oyani teranlashtiradi. Va kitobxonda obrazli tasavvur uyg'otadi. “Oltin qoboq” dostonida bu san'atdan unumli foydalanilgan. Masalan:

1. Ol, berahm, borgandan ot qoboqni, Xojayi Xizr bo'lsin – a doim yo'ldoshing.

2. Bellaringa boyladim bo'ta,

Hammadan o'zingiz katta.

Farzandimga madad bering bir mayda

Otingizdan aylanay Odam Ato – yey.

3. Farzandimga madad bering bir mayda,

Otingizdan aylanay Momo Havo – yey.

4. Barchani yaratgan qodir Xudoyim,

Ochilarmi bugun mening manglayim.

Yo'llarimni o'zingiz qiling – da qoyim,

Bari maydonda sizdan madad tilaydi.

Millatim deb madad bering – a,

Makkani qurgan Ibrohim.

(Abdunazar baxshi Poyonov)

Xuddi shu kabi misralar Gulboy baxshi Mirzayevda ham mavjud bo'lib, unda ham talmeh san'ati uchraydi.

Oltin qoboq” dostoni mukammal doston bo'lib, unda ham boshqa xalq og'zaki ijodi turlarida bo'lgani kabi “sehrli raqam” larga duch kelamiz.

Bizga ma'lumki, ertak, doston va afsonalarda 3,7,9,20,40 raqamlari juda ko'p uchraydi va bu sonlar shartli ravishda “sehrli raqamlar” deb tan olingan.

Dostonda 40 raqami ko'p o'rinda uchraydi. Masalan, Abdunazar baxshi Poyonov aytgan variantida quyidagi misollar keltirilgan.

“40 shahardan 40botirni keltirib”, “ Shu 40 yigitning birovini taxtga podsho qilib qo'ysam”, “Go'ro'g'li 40 yigiti va 40 vaziri bilan yetib bordi”.

“40 biyani ko'tarib,

Oti otarga tushdi”.

Yoki

“ 40 ming norga ortayotir,

Choynak bilan piyola”.

“Jarchilar: 40 kun Arpalida to'y bo'ladi, - debdi. 40 kunlik tomoshaga chodir – chakmon, to'y anjomlarini ortib borishibdi”.

(Gulboy baxshi Mirzayev variantidan)

E'tiborlisi shundaki, dostonda nafaqat badiiy san'at, maqol va matallar, balki ayrim viloyatlarga ishora qilingan o'rinlar bor. Masalan, dostonda Avaz mergan nutqidan quyidagi satrlar keltiriladi:

Eshitgin Shodmon so'zini,
Qisdiray endi sho'rini.
Qayta boshdan qurdiray,
Chambilda Mansur dorini.

Bu misralarda tilga olingan Mansur tarixda yashab o'tgan mashhur so'fiy olim Husayn ibn Mansur Halloj (858-922) nomi bilan bog'liq bo'lib, Mansur Halloj o'zining g'oyalari ("Anal – haq" —Men Haqman / haqiqatman) uchun dushmanlari tomonidan ayblanib, dorga osilgan. Shu sababli mumtoz adabiyotda va xalq dostonlarida ("Mansur dori") iborasi paydo bo'lgan.

"Oltin qoboq" dostonining badiiy-tasviriy vositalarini ilmiy asosda tahlil qilish natijasida asarning poetik mukammalligi, ifoda boyligi va estetik qimmati yanada chuqurroq ochib berildi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mazkur doston o'zbek xalq og'zaki ijodining yuksak namunasi sifatida badiiy vositalarning tizimli va funksional uyg'unligi bilan ajralib turadi.

Bundan tashqari, dostonda qo'llangan ramziy obrazlar va poetik detallar uning g'oyaviy-estetik mazmunini chuqurlashtiradi. H. Karimovning ta'kidlashicha, "folklor asarlarida har bir badiiy detal muayyan ma'no yukiga ega bo'lib, umumiy badiiy tizimning ajralmas qismi hisoblanadi" (Karimov, 2008, 91-bet). Shu jihatdan qaraganda, "Oltin qoboq" dostonida qo'llangan barcha tasvir vositalari asarning umumiy konsepsiyasini ochishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, "Oltin qoboq" dostonida badiiy-tasvir vositalari nafaqat estetik zavq bag'ishlash, balki xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi va ma'naviy qadriyatlarini ifodalash vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning o'rinli va mahorat bilan qo'llanilishi asarning badiiy mukammalligini ta'minlab, uni o'zbek folklorining yuksak poetik namunalaridan biriga aylantiradi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Turdimov Sh. "Go'ro'g'li" dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. Toshkent.: Fan, 2011. 3 – bet.
2. Sulaymonov M. O'zbek folklori. – Namangan – 2019, 58 – bet.
3. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent.: "Mumtoz so'z", 2010. 92-bet.
4. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent.: "Musiq", 2010.
5. Ochilov N. "Zulfizar dostonining variantlari va genezisi" maqola. Til va adabiyot ta'limi.